Birinchidan, iqtisodiy samaradorlik xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotga (YAIM) qo'shayotgan hissasi, xizmatlar hajmi va daromadlari, sektor investitsiyalari miqdori, shuningdek, transport, mehmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish sur'atlari orqali baholanadi. Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'siri aniqlanib, u yashil iqtisodiyot strategiyalari bilan uyg'unlashtiriladi.

Ikkinchidan, ekologik samaradorlik tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar hajmini qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish hamda xizmat ko'rsatish faoliyatining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini minimallashtirish orqali baholanadi. Ekologik xizmatlar (eko-xizmatlar)ni joriy etish, ekologik innovatsiyalar va yashil texnologiyalardan foydalanish yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishga erishishning muhim omillari hisoblanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy samaradorlik xizmat ko'rsatish sohasining mahalliy aholi turmush darajasiga ta'siri, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda madaniy merosni asrashga qo'shayotgan hissasi orqali baholanadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi mahalliy aholi manfaatlariga xizmat qilishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashi zarur. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlash, aholini ish bilan ta'minlash va milliy madaniyatni targ'ib qilishda muhim rol o'ynashi lozim.

Ilmiy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligini baholashda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Xususan, T. Misko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish samaradorligini baholash uch bosqichda amalga oshirilishi lozimligi qayd etilgan: ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik baholash bosqichlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy bosqich xizmat ko'rsatish sohasining mahalliy jamoalar hayotiga, mehnat bozoriga va tadbirkorlik rivojiga ta'sirini o'rganishni qamrab oladi. Tabiiy-geografik bosqich xizmat ko'rsatish resurslarining holatini tahlil qilish, hududiy tabiiy imkoniyatlardan foydalanish darajasini aniqlash va ularning ekspluatatsiya chegaralarini belgilashga qaratilgan. Ekologik bosqich esa xizmat ko'rsatish faoliyatining atrof-muhitga ta'siri, chiqindilarni kamaytirish bo'yicha strategiyalar hamda ekologik muvozanatni ta'minlash choralari baholashni o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy ta'sirini baholashda turli mezonlar qo'llaniladi. Ushbu mezonlar xizmat ko'rsatishning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini aniqlash imkonini beradi. Jumladan, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining YAIMdagi ulushi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatish sohasi tomonidan yaratilgan umumiy daromadning YAIMdagi ulushi iqtisodiy rivojlanish jarayonida ushbu sektorning qanchalik muhim ekanligini aks ettiradi.

Quyida xizmat ko'rsatish sohasining YAIMga qo'shayotgan ulushini aniqlash imkonini beruvchi formula keltiriladi.

$$XD_u = \left(\frac{XN_d}{YAIM} \right) \times 100 \quad (1)$$



bu yerda:

XD_u – xizmat ko'rsatish daromadlari ulushi (%), ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi YAIMning qanchalik katta qismini tashkil etayotganini ko'rsatadi;

XN_d – xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida olingan umumiy daromad (mln USD), ya'ni iste'molchi lik xizmatlari, mehmonxonalar, transport, gastronomiya va boshqa xizmatlar faoliyatlardan olingan daromadlar yig'indisi;

$YAIM$ – mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (mln USD), ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati.

Mazkur formula xizmat ko'rsatish sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini baholash imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotga (YAIM) qo'shayotgan hissassi iqtisodiy siyosatni shakllantirish, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu indikator orqali xizmat ko'rsatish sektorining umumiy iqtisodiy faollikka ta'siri aniqlanadi hamda uning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini va roli baholanadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar darajasi ham sektor samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko'rsatish sohasini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishda moliyaviy xarajatlarning samaradorligini aniqlash uchun mos metodologik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Xususan, xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini baholash maqsadida investitsiya samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasiga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

$$XIt = \frac{XN_d}{XI} \times 12 \quad (2)$$

bu yerda :

XIt – yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishdan tushadigan daromadlarning investitsiyaga nisbati;

XN_d – xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida olingan umumiy daromad;

XI – xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar;

12 – yildagi oylar soni.

Mazkur model yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda, shuningdek davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan dasturlarni moliyaviy jihatdan tahlil qilishda qo'llaniladi. Ushbu yondashuv xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan sarmoyalarning natijadorligini aniqlash, ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini baholash hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki atrof-muhit holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, xizmat ko'rsatish sohasining yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekologik omillarni baholash alohida ahamiyatga ega. Ekologik samaradorlik xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida hosil bo'ladigan uglerod chiqindilari, energiya iste'moli hajmi, chiqindilar miqdori hamda suv resurslaridan foydalanish darajasi kabi muhim ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar xizmat ko'rsatish sohasining atrof-muhitga bo'lgan yuklamasini baholash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Quyida xizmat ko'rsatish sohasining ekologik ta'sirini baholashda qo'llaniladigan asosiy ekologik ko'rsatkichlar va ularni hisoblash formulalari keltiriladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlik darajasi ham sektor samaradorligini baholashda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sektorining mehnat bozoriga ta'sir darajasini aniqlash imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi sonining umumiy band aholiga nisbati mazkur sektorning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini aks ettiradi.

Ish bilan bandlik darajasi xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissassi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholi turmush darajasini oshirishdagi rolini baholashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Quyidagi formula orqali xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlik darajasini aniqlash mumkin.

$$XIB = \left(\frac{XIS}{UB} \right) \times 100 \quad (3)$$

bu yerda:

XIB – xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholining umumiy bandlikdagi ulushi (%), ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatning umumiy ish bilan band aholisi ichida qanday o'ringa egaligini ko'rsatadi;

XIS – xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan ishchilar soni, ya'ni transport, ovqatlanish, tibbiy, ijtimoiy va boshqa xizmat ko'rsatish xizmatlari bilan bog'liq faoliyatlarda ishlayotgan odamlar soni;

UB – mamlakatda umumiy band aholisi, ya'ni barcha ish bilan ta'minlangan fuqarolar soni.

Ushbu formula xizmat ko'rsatish sohasining mehnat bozoridagi ahamiyatini baholash imkonini beradi hamda uni boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan solishtirishda qo'llaniladi. Xizmat ko'rsatish sohasining ish bilan bandlikka ta'siri mamlakat iqtisodiy siyosatini shakllantirish, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Uglerod izi (CO_2 emissiyasi) darajasi. Uglerod izi xizmat ko'rsatish sektorining yashil iqtisodiyot sharoitidagi ekologik barqarorlikka ta'sirini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida atmosferaga chiqarilgan umumiy CO_2 emissiyasining iste'molchilar soniga nisbati asosida aniqlanadi. Uglerod izi xizmatlar ko'rsatish jarayonida atrof-muhitga tushayotgan ekologik yuklamani baholash, energiya va resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi formula orqali xizmat ko'rsatish sohasida uglerod izini hisoblash mumkin:

$$U_I = \frac{X_{\text{CO}_2}}{X_S} \quad (4)$$

bu yerda:

U_I – uglerod izi ($\text{kg CO}_2/\text{turist}$), ya'ni har bir iste'molchi uchun atmosferaga chiqarilgan o'rtacha CO_2 miqdori;

X_{CO_2} – xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi (tonna);

X_S – xizmatlar ko'rsatishdan foydalanganlar soni, ya'ni ma'lum bir davr mobaynida xizmat ko'rsatish sohasidagi iste'molchilar soni.

Ushbu formula xizmat ko'rsatishning yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik ta'sirini baholash, xizmat ko'rsatish infratuzilmasining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va ekologik toza xizmat ko'rsatish strategiyalarini ishlab chiqish uchun qo'llaniladi.

Yuqorida qayd etilgan X_{CO_2} – xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi o'zining hisoblash formulasiga ega bo'lib, turli xizmatlar faoliyatlar natijasida ajralib chiqadigan karbonat angidrid (CO_2) miqdorini o'z ichiga oladi. Bu transport, turar joy, ovqatlanish, maishiy, ijtimoiy kabi omillarga bog'liq. X_{CO_2} - quyidagi umumiy formulalar yordamida hisoblanadi:

1. Transport emissiyasi.

Transport xizmat ko'rsatish dagi eng katta CO_2 chiqaruvchi sektor hisoblanadi. Uning hisoblash usuli:

$$T_{\text{CO}_2}^{\text{transport}} = \sum (D_i \times E_i \times P_i) \quad (5)$$

bu yerda:

$T_{\text{CO}_2}^{\text{transport}}$ – transport orqali hosil bo'lgan umumiy CO_2 emissiyasi (kg yoki tonna CO_2);

D_i – transport turi bo'yicha bosib o'tilgan masofa (km);

E_i – transport turi uchun o'rtacha emissiya koeffitsiyenti ($\text{kg CO}_2/\text{km}$);

P_i – transport turi bilan sayohat qilgan yo'lovchilar soni.

2. Xizmat ko'rsatuvchi joylashtirish vositalari (mehmonxona) emissiyasi.

Xizmat ko'rsatuvchi turar joylarda ishlatiladigan energiya miqdori asosida CO_2 emissiyasini hisoblash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$T_{\text{CO}_2}^{\text{ev}} = N \times E \quad (6)$$

bu yerda :

$T_{\text{CO}_2}^{\text{ev}}$ – joylashtirish vositalari (mehmonxona) tomonidan chiqarilgan umumiy CO_2 emissiyasi (kg yoki tonna CO_2);

N – iste'molchilarning umumiy tunash kechalari soni;



E – har bir tunash kechasi uchun o'rtacha CO₂ emissiyasi (kg CO₂/tunash).

3. Ovqatlanish xizmatlari emissiyasi.

Ovqatlanish xizmatlari taklifi natijasida iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari orqali ham CO₂ emissiyasi hosil bo'ladi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish, transport, saqlash va tayyorlash jarayonida turli miqdorda issiqxona gazlari chiqariladi.

$$OX_{CO_2} e^f = Nm \times Em \quad (7)$$

bu yerda:

$OX_{CO_2} e^f$ – ovqatlanish jarayoni orqali hosil bo'lgan umumiy CO₂ emissiyasi (kg yoki tonna CO₂);

Nm – istemolchilar tomonidan iste'mol qilingan umumiy ovqatlar soni;

Em – har bir ovqat uchun o'rtacha CO₂ emissiyasi (kg CO₂/ovqat).

Umumiy hisoblash (yakuniy formula).

Xizmat ko'rsatish faoliyatining umumiy CO₂ emissiyasini hisoblash uchun barcha asosiy manbalarni jamlash kerak (tahlil qilinayotgan obyektga qarab, qo'shimcha omillarni ham kiritish mumkin).

$$X_{CO_2} = \sum X_{CO_2} e^{transport} \times X_{CO_2} e^{ju} \times X_{CO_2} e^f \quad (8)$$

Xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida hosil bo'ladigan umumiy CO₂ emissiyasini aniqlash uchun transport, turar joy, ovqatlanish hamda boshqa xizmat turlari bo'yicha yuzaga keladigan emissiyalar yig'indisi hisobga olinadi. Mazkur ko'rsatkichlarni aniqlashda hukumat statistika organlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT, IEA), shuningdek ekologik tadqiqotlar va monitoring natijalaridan foydalanish mumkin. Ushbu yondashuv xizmat ko'rsatish sektorining atrof-muhitga umumiy ekologik ta'sirini aniqlash hamda emissiyalarni kamaytirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Energiya iste'moli darajasi. Xizmat ko'rsatish sohasi energiya resurslarining muhim iste'molchilaridan biri hisoblanadi. Energiya iste'moli samaradorligi (EIS) xizmat ko'rsatish sektorida bir nafar iste'molchiga to'g'ri keladigan o'rtacha energiya iste'moli hajmini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkich energiya resurslaridan foydalanish darajasini baholash, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish samaradorligini aniqlash hamda yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi formula orqali xizmat ko'rsatish sektorida energiya iste'moli darajasini hisoblash mumkin:

$$EI = \frac{T_{ei}}{UE_{iq}} \quad (9)$$

bu yerda:

EI – har bir iste'molchi uchun o'rtacha energiya iste'moli (kWh/turist);

T_{ei} – xizmat ko'rsatish sektorida iste'mol qilingan umumiy energiya miqdori (kWh);

UE_{iq} – xizmatlardan foydalanuvchilar soni, ya'ni ma'lum bir davr mobaynida xizmat ko'rsatish hududiga tashrif buyurgan iste'molchilar soni.

Xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat iqtisodiy va ekologik jihatdan, balki jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xizmat ko'rsatishning yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlashda ijtimoiy omillarni baholash alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy samaradorlik xizmat ko'rsatish sohasining mahalliy aholi turmush darajasiga ta'siri, ish bilan bandlik ko'rsatkichlari, mahalliy infratuzilmaning rivojlanishi hamda madaniy merosni asrash va targ'ib etishga qo'shayotgan hissasi orqali aniqlanadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini baholash maqsadli (me'yoriy) ko'rsatkichlarni amaldagi natijalar bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi. Bunda mutlaq, nisbiy, qiymat, natural hamda sintetik (integrallashgan) ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar guruhi xizmat ko'rsatish infratuzilmasining rivojlanish darajasi, xizmatlar faoliyatining atrof-muhitga ta'siri, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish tizimi, mahalliy aholi ishtiroki, ish bilan bandlik darajasi hamda xizmat ko'rsatish sektorining iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi kabi asosiy jihatlarni tavsiflaydi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishning mahalliy aholi farovonligiga ta'sir darajasi. Mazkur ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishi natijasida mahalliy aholining daromadlaridagi o'zgarishlarni baholashda qo'llaniladi. U iqtisodiy tahlil jarayonlarida hamda xizmat ko'rsatishning yashil iqtisodiyot sharoitidagi ijtimoiy samaradorligini aniqlash metodikalarida muhim indikator hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$XT = \frac{Md}{XRm} \times 100 \quad (10)$$

bu yerda:

XT – xizmat ko'rsatish sohasining mahalliy aholi daromadiga ta'siri (%);

Md – xizmat ko'rsatish sohasi tufayli mahalliy aholining daromadidagi o'sish (so'm yoki AQSh dollari);

XRm – xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishidan oldin mahalliy aholi daromadi.

Yuqoridagi formulalardan foydalanib, statistik ma'lumotlar asosida yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligini aniqlaymiz.

1-jadval. Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligi

Ko'rsatkichlar	Qiymat
Yalpi ichki mahsulot hajmi	114,9 mlrd (USD)
Xizmat ko'rsatish faoliyati natijasida olingan umumiy daromad	40,5 milliard (USD)
Xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi	8,1 milliard (USD)
Xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi	891,1 ming kishi
Umumiy band aholi	19 million kishi
CO ₂ emissiyasi	500 ming tonna

Xizmat ko'rsatish ning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi: xizmat ko'rsatish daromadi = 40,5 milliard AQSh dollari/ YAIM = 114,9 milliard AQSh $\times 100\% \approx 35,2\%$; Xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlik darajasi: xizmat ko'rsatish da band aholi = 891,1 ming kishi/umumiy band aholi=19 million kishi $\times 100\% \approx 46,6\%$; Xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga investitsiyalar ulushi: xizmat ko'rsatish investitsiyalari = 8,11 milliard AQSh dollari / YAIM = 114,9 milliard AQSh dollari $\times 100\% \approx 7,84\%$; Xizmat ko'rsatish ning CO₂ emissiyasidagi ulushi: xizmat ko'rsatish CO₂ emissiyasi = 150 ming tonna/umumiy CO₂ emissiyasi = 500 ming tonna $\times 100\% = 30\%$; Uglerod izi (CO₂ emissiyasi): umumiy CO₂ chiqindisi = 500 000 tonna/ Xizmatlar band aholi soni = 891,1 million =0.056 tonna=56 kg;

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligini baholash uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni o'z ichiga olgan kompleks metodologiyadan foydalanildi. Ushbu baholash jarayonida xizmat ko'rsatishning milliy iqtisodiyotga ta'siri, jamiyatga foydasi hamda ekologik yuklamasi hisobga olindi. Barcha ko'rsatkichlarni yagona tizimga keltirish va xizmat ko'rsatish samaradorligini umumlashtirilgan indeks asosida ifodalash uchun vaznlangan indekslash, normallashtirish va umumiy indeks chiqarish usullari qo'llandi.

Birinchi navbatda, xizmat ko'rsatish ning iqtisodiy ta'siri yalpi ichki mahsulot (YAIM) ulushi, sohadagi investitsiyalar hajmi hamda xizmat ko'rsatish sektorida band bo'lgan aholining umumiy bandlikdagi hissasi orqali baholandi. Ushbu omillar xizmat ko'rsatish ning iqtisodiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini ko'rsatadi va ularning ahamiyati o'zaro farq qiladi. Masalan, YAIM ulushi xizmat ko'rsatish ning umumiy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini aks ettirsa, investitsiyalar hajmi sohaning infratuzilma rivojiga ta'sirini tavsiflaydi. Bandlik darajasi esa xizmat ko'rsatish ning mehnat bozoriga ta'sirini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy ta'sir bo'yicha baholashda mahalliy aholi ishtirokingin darajasi hisobga olindi. Bu xizmat ko'rsatish sohasi mahalliy jamoaga qanday ta'sir ko'rsatayotgani va uning yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlanishiga qanday hissa qo'shayotganini aniqlash uchun muhim omildir. Mahalliy aholining xizmatlar tadbirlardagi ulushi xizmat ko'rsatish ning hududiy rivojlanishdagi o'rnini ham aks ettiradi.

Ekologik ta'sir ko'rsatkichlari sifatida xizmat ko'rsatish natijasida hosil bo'lgan umumiy CO₂ emissiyasi va har bir xizmatlar tashrifga to'g'ri keladigan uglerod chiqindisi miqdori hisobga olindi. Ushbu ko'rsatkichlar xizmat ko'rsatish ning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, CO₂ emissiyasining umumiy chiqindilardagi ulushi va har bir turist tashrifidan hosil bo'ladigan chiqindilar ekologik yashil iqtisodiyot sharoitida lik mezonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Barcha ushbu ko'rsatkichlar har xil birliklarda ifodalanganligi sababli ularni yagona tizimga keltirish zarurati yuzaga keladi. Shu maqsadda har bir ko'rsatkichning nisbiy ahamiyati (vazni) aniqlanib, normallashtirish usuli orqali umumiy tizimga moslashtirildi. Normallashtirish jarayonida barcha ko'rsatkichlar 0 dan 100 gacha bo'lgan oraliqqa o'tkazildi, bu esa ularning bir-biri bilan solishtirish imkonini yaratdi. Misol tariqasida, YAIM



ulushi maksimal 5% deb olinib, turli mamlakatlardagi YAIM ta'siriga mos ravishda qayta hisoblandi. Shu kabi, bandlikning maksimal darajasi 10% deb olinib, u ham normallashtirildi. Ekologik yuklamani hisoblashda CO₂ emissiyasining eng yuqori chegarasi aniqlanib, har bir mamlakat bo'yicha solishtirma baholash amalga oshirildi.

Shundan so'ng, barcha normallashtirilgan ko'rsatkichlar vaznlangan indekslash usuli orqali yagona ko'rsatkichga keltirildi. Har bir indikatorning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yashil iqtisodiyot sharoitida likka ta'sirini inobatga olgan holda, ular ustuvorlik darajasiga qarab baholandi. YAIM ulushi va bandlik iqtisodiy ta'sirni aks ettirganligi sababli ularga mos ravishda 25% va 20% vazn ajratildi. Ekologik yuklama esa xizmat ko'rsatish ning uzoq muddatli rivojlanishiga ta'siri yuqori bo'lgani sababli unga 20% vazn berildi. Shu bilan birga, investitsiyalar 15%, mahalliy aholi ishtiroki 10% va har bir tashrifga to'g'ri keladigan CO₂ emissiyasi 10% vazn bilan baholandi.

Natijada, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligi indeksi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$\sum_{i=1}^n i = (Wi \times Xi) \quad (11)$$

bu yerda :

Wi – har bir indikatorning vazni;

Xi – normallashtirilgan qiymat;

n – indikatorlar soni.

Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligi indeksi 29,12 ni tashkil etdi. Mazkur natija yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi hozirgi bosqichda o'rtacha past ekanligini ko'rsatadi. Xususan, xizmat ko'rsatishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35,4%, investitsiyalar hajmining esa 7,84% darajasida bo'lishi ushbu sektorning iqtisodiyotga ta'siri yetarli darajada yuqori emasligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ekologik yuklamaning 30% ga teng ekani xizmat ko'rsatish sohasi atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi va ekologik jihatdan barqaror rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi. Biroq xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasi 46,3% ni tashkil etib, bu sektorning ijtimoiy jihatdan nisbatan samarali rivojlanayotganini va aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish samaradorligini to'liq va kompleks baholash uchun hozirgi kunda yetarli statistik ma'lumotlar bazasi shakllanmagan. Mavjud ko'rsatkichlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirilgan bo'lsa-da, kelgusida xizmat ko'rsatish sohasining real iqtisodiy ta'siri, uning ekotizimga bo'lgan uzoq muddatli ta'siri hamda yashil iqtisodiyot mezonlariga muvofiqlik darajasini aniqlash uchun yanada keng qamrovli statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish tizimini takomillashtirish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishda, sohaviy siyosatni shakllantirishda hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, mazkur maqola natijalari asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish uchun bir qator strategik yo'nalishlarni takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish maqsadida investitsiya faolligini rag'batlantirish va ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish lozim. Ikkinchidan, ekologik yuklamani kamaytirish uchun uglerod emissiyasini qisqartirishga qaratilgan kompleks va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Uchinchidan, mahalliy aholining xizmat ko'rsatish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, hududiy rivojlanishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini kuchaytirish va hududlar kesimida differensial yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish hamda belgilangan maqsadlarga erishish uchun xizmat ko'rsatish sohasini samarali va tizimli tartibga solish zarur. Bunda, avvalo, hududlarda amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatish faoliyatini kompleks va izchil rejalashtirish, uni aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga yo'naltirilgan holda boshqarish maqsadga muvofiqdir. Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish salohiyatiga ega hududlarni rivojlantirish jarayonida ushbu hududlarda xizmatlar majmuasining shakllanishi, xizmatlar ko'rsatuvchi aholi punktlarining vujudga kelishi va infratuzilmaning mos ravishda rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shu bilan birga, hududlarni rivojlantirish dasturlari har bir davlatning milliy va mintaqaviy strategik hujjatlari bilan uzviy uyg'unlikda amalga oshirilishi talab etiladi.



Davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining muhim tarkibiy qismi sifatida maqsadli dasturlar va rejalarining ishlab chiqilishi, shuningdek davlat boshqaruvi faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda prognozlash dastlabki va muhim bosqich bo'lib, u yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Davlat siyosatida prognozlashning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash hamda qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining ehtimoliy ta'sirini baholash orqali real va barqaror natijalarga erishish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations. Paris Agreement. Available at: <https://www.un.org/ru/climatechange/paris-agreement>
2. Robertson R. (1992). Globalization: Social Theory and Global Culture. London; Newbury Park, CA: Sage Publications. 211 p. ISBN: 978-0803981874. Available at: <https://archive.org/details/globalizationsoc0000robe>
3. World Bank. (2002). Globalization, Growth, and Poverty: Building an Inclusive World Economy. World Bank Policy Research Report. Available at: <https://www.un.org/ru/youthink/globalization.shtml>
4. Stiglitz J.E. (2003). Globalization and Its Discontents. New York: W. W. Norton & Company. 304 p. ISBN: 978-0393324396. Available at: <https://www.amazon.com/Globalization-Its-Discontents-Norton-Paperback/dp/0393324397>
5. Giddens A. (1990). The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press. 188 p. ISBN: 978-0804718912. DOI/Publisher link: <https://www.sup.org/books/cite/?id=2664>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100